



AXBOROT MAKONIDA HUQUQIY TAFAKKUR

Erkaboyev Sobitxon Akmalxon o‘g‘li

*O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademysi Islom huquqi
(Yurisprudensiya) Mutaxasisligi magistranti,*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari jamiyat ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki fuqarolik ongini rivojlantiruvchi kuchli ijtimoiy institutga aylanib, huquqiy ong va madaniyatning yangi bosqichda shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonni chuqur o‘rganish fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va demokratik jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ommaviy axborot vositalari hamda internet jamiyat ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular fuqarolik ongini rivojlantirishda va huquqiy madaniyatni oshirishda kuchli ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu mavzuni o‘rganish fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va demokratik jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: Global, Digital ,Insights ,Media, interfeysida Administratsiya, manipulyat , platforma

THOUGHT IN THE INFORMATION SPACE

Erkaboyev Sobitxon Akmalxon oglu

*Uzbekistan International Islamic Studies Academy Islamic Law
(Jurisprudence) Master’s degree student,*

In today's globalization and digital transformation, the media and the Internet play an important role in shaping public consciousness. They are not only a means of disseminating information, but also a powerful social institution that develops



civic consciousness, serving the formation of legal consciousness and culture at a new stage. A deep study of this process is of great importance in increasing the legal literacy of citizens and building a democratic society. In the era of globalization and digital transformation, the media and the Internet are of great importance in shaping public consciousness. They act as a powerful social institution in developing civic consciousness and increasing legal culture. Studying this topic serves to increase the legal literacy of citizens and build a democratic society.

Key words and concepts: Global, Digital, Insights, Media, Administration, manipulation, platform in the interface

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida axborot vositalari, xususan ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda internet tarmoqlari jamiyat ongini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutmoqda. Shular qatorida huquqiy ong va madaniyatning shakllanishi ham bu axborot maydonlarida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. OAV va internet – bu nafaqat axborot tarqatuvchi, balki fuqarolik ongini shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy institutga aylanmoqda. Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi zaruriy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Ommaviy axborot vositalari (OAV) va internet tarmog‘i huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida asosiy vositaga aylangan. Fuqarolarning huquqiy xabardorligi, qonunlarga nisbatan hurmat va amal qilish odati asosan virtual makonda shakllanmoqda.

Bugungi kunda Global Digital Insights ma’lumotlariga ko‘ra 2024-yil yakunida dunyo bo‘yicha internet foydalanuvchilari soni 5,35 milliard kishidan oshgan, bu esa dunyo aholisining 66,2 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda Milliy



statistika qo‘mitasining 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, internet foydalanuvchilari soni 32 milliondan oshdi, bu umumiy aholining 88% qismini tashkil etadi. Har kuni 2,5 kvintillion baytdan ortiq axborot internet orqali uzatiladi. 2023-yilda O‘zbekistonda huquqiy kontentga ega Telegram-kanallar soni 1,000 dan oshdi, ularning aksariyati Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va fuqarolik jamiyatini institutlariga tegishli.

Axborotga erkin kirish: O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni fuqarolarga axborotdan foydalanish huquqini belgilab beradi. Huquqiy targ‘ibot va ta’lim: “Yuksalish” umummilliy harakati, Adliya vazirligi va boshqa tashkilotlar tomonidan Telegram, YouTube va Facebook orqali yuritilayotgan huquqiy loyihalar (masalan: “Huquqiy savodxonlik maktabi”). Bundan tashqari elektron davlat xizmatlari: My.gov.uz portalini orqali 200 dan ortiq huquqiy-amaliy xizmatlar onlayn taqdim etilmoqda. “Lex.uz” portalining yangi interfeysida foydalanuvchilar qonunlarni oddiy savollar orqali izlay olmoqda. Elektron murojaatlar soni 2022-yilda 1,3 millionga yetdi. Shundan 60% ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborilgan (Prezident Administratsiyasi hisobotiga ko‘ra). OAV orqali yoritilgan huquqiy mavzular soni ko‘paymoqda: 2023-yilda “O‘zbekiston 24” telekanalida efirga uzatilgan ijtimoiy-huquqiy ko‘rsatuvalar soni 200 dan oshdi.

Yoshlar orasida huquqiy savodxonlik ortmoqda: 2023-yil yakunida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan so‘rovda 72% yoshlar internet orqali huquqiy bilimga ega bo‘lishini aytgan. Soxta axborot (feyk news) – ishonchli manbalarning yetishmasligi fuqarolarning noto‘g‘ri huquqiy xulqini shakllantirishi mumkin. Internetga nisbatan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari past – bu esa manipulyativ axborotlar ta’sirini kuchaytiradi. Raqamli notenglik – chekka hududlarda internet tezligi past yoki mavjud emasligi huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Axborot-kommunikatsion yondashuv – internet platformalarida vizual, grafik va video asosida huquqiy materiallar yaratish foydalanuvchilar uchun yanada



samarali bo‘ladi. Media-savodxonlik yondashuvi – fuqarolarga ishonchli manbani ajrata olish, manipulyativ texnikalardan saqlanish, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali huquqiy ongni kuchaytirish mumkin. Fuqarolik ishtiroki yondashuvi – onlayn petitsiyalar, huquqiy forumlar va ijtimoiy tarmoqlarda faollik huquqiy madaniyatning interaktiv shaklini shakllantiradi.

OAV va internet tarmog‘i orqali huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish zamonaviy axborotlashgan jamiyatda muhim ustuvor yo‘nalish bo‘lib, bu jarayon raqamli platformalar orqali faol amalga oshirilmoqda. Bu vositalarning salohiyati – fuqarolarning huquqiy bilim darjasи, qonunlarga sodiqlik va ijtimoiy faolligini oshirishda beqiyosdir. Insoniyat jamiyatining rivojlanishida huquq va axloq har doim bir-birini to‘ldirib kelgan. Xususan, diniy-axloqiy qadriyatlar kishilarning ichki dunyosini, e’tiqodini, xulq-atvorini va qonunlarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Shunday ekan, huquqiy madaniyat darajasini oshirishda diniy va axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Bugungi globallashuv davrida inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolik ongini rivojlantirish, huquqqa hurmatni oshirishda diniy-axloqiy mezonlarning roli yanada kuchaymoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar huquqiy madaniyat va diniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan.

Diniy-axloqiy qadriyatlar – bu jamiyatda axloqiy me’yorlar va diniy e’tiqodlar asosida shakllangan qadriyatlar bo‘lib, ular insonning xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini belgilaydi. Axloqiy qadriyatlar esa har qanday jamiyatda tartib, hurmat, ijtimoiy barqarorlik va qonunlarga sadoqatni ta’minlaydi. Shunday qilib, diniy-axloqiy qadriyatlar huquqiy ong va madaniyatning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Huquqiy madaniyat – bu fuqarolarning huquq va majburiyatlar, qonunlar va davlat tuzilmalari haqidagi bilimlari, ularga bo‘lgan munosabatlari, ularni ongli ravishda bajara olish qobiliyatidir.



Diniy-axloqiy qadriyatlar huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ular inson ongida huquqqa hurmat, qonunga itoat va adolatga ishonchni mustahkamlab, jamiyatda tartib-intizom, barqarorlik va farovonlikka xizmat qiladi. Shu bois, huquqiy davlat qurish yo'lida diniy-axloqiy qadriyatlarni huquqiy tarbiya bilan uyg'un holda olib borish zarur va dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ommaviy axborot vositalari (OAV) va internet tarmog'i insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu vositalar nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy ong, xususan, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Huquqiy ong – bu fuqarolarning amaldagi qonunlar, o'z huquq va majburiyatlari, davlat-huquqiy institutlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi va ularga ongli ravishda rioya qilishi bo'lsa, huquqiy madaniyat – bu ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, huquqiy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni anglatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchasi

Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquqiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini, huquqiy bilim va tasavvurlarini, hamda huquqiy qadriyatlarga bo'lgan ishonchini ifodalaydi. U quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi: Shaxsiy darajada – fuqaroning o'z huquq va majburiyatlaridan xabardorligi; Jamiyat darajasida – huquqiy qadriyatlар va adolatga bo'lgan umummilliy e'tiqod; Davlat darajasida – huquq ustuvorligini ta'minlash va uni targ'ib qilish. Huquqiy madaniyat esa ushbu ongni amalda tatbiq etish – qonunlarga rioya qilish, huquqiy nizolarni qonuniy yo'l bilan hal etish va boshqalarda namuna ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. OAV va internetning huquqiy ongga ta'siri. Ommaviy axborot vositalari va internet keng jamoatchilik ongiga tezkor, ommabop va kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu bois, ular huquqiy axborotni targ'ib qilish, huquqiy savodxonlikni oshirish va fuqarolarning qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.



Televizion huquqiy-ko‘ngilochar dasturlar (masalan, “Huquqiy maslahat” Internet portallaridagi qonunchilik yangiliklari (Lex.uz, Norma.uz va h.k.); Ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy bloglar va advokatlar chiqishlari. Ushbu platformalar orqali insonlar nafaqat o‘z huquqlaridan xabardor bo‘ladi, balki ulardan foydalanishni o‘rganadi, huquqiy jarayonlarga faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Internet tarmog‘i va raqamli platformalarning yangi imkoniyatlari Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy madaniyatni shakllantirish an’anaviy OAVdan farqli ravishda interaktiv, erkin va tezkor uslubda amalga oshadi. Bunda quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega: Interaktivlik – fuqarolar savol-javoblar orqali bevosita mutaxassislardan maslahat olishadi; Omma uchun ochiqlik – huquqiy materiallar istalgan vaqtida ko‘rish, yuklab olish, ulashish imkoniyatiga ega; Viral effekt – biror huquqiy holat yuzasidan tarqalgan video yoki maqola millionlab odamlar ongini shakllantiradi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, internetda noto‘g‘ri, yolg‘on yoki manipulyativ huquqiy axborotlar ham tarqalmoqda. Shu sababli, ishonchli manbalardan foydalanish va media savodxonlikni oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. OAV va internet orqali huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi muammolar Quyidagi muammolar mavjud: Noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborotlarning ko‘pligi – bu fuqarolarni chalg‘itadi; Huquqiy kontentning yetishmasligi – ayrim mintaqalar yoki auditoriyalar uchun moslashtirilgan materiallar yo‘qligi; Media savodxonlikning past darajasi – aholining axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasining zaifligi. Bu muammolarni hal etish uchun davlat, OAV va fuqarolik jamiyati instituti hamkorlikda ishlashi lozim.

Xulosa

OAV va internet tarmog‘i jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Ular orqali huquqiy axborotni keng



jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va huquq ustuvorligini targ‘ib qilish mumkin. Biroq bu jarayon yuksak mas’uliyat, axborot xavfsizligi, media savodxonlik va ishonchli manbalarga tayanishni talab etadi. Shu bois, ushbu vositalarning imkoniyatlaridan oqilona va tizimli foydalanish zarur. Axborot makonida huquqiy madaniyatni oshirish bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari shiddat bilan kechayotgan davrda dolzarb ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur bobda axborot, axborot makoni, huquqiy ong va huquqiy madaniyat kabi tushunchalarning nazariy asoslari hamda ularni o‘rganish yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Birinchidan, axborot va axborot makoni tushunchalari texnik va ijtimoiy jihatlari bilan chuqur sharhlandi. Axborot makoni insoniyat faoliyatining raqamli, global va ijtimoiy nazoratga asoslangan yangi ko‘rinishi sifatida talqin qilindi. Manuel Castells, Alvin Toffler, Norbert Wiener, Claude Shannon kabi olimlarning ta’riflari asosida axborot va uning makoni haqida ko‘p qirrali qarashlar ilgari surildi. Ularning yondashuvlari axborot makonining turli qatlamlarini ijtimoiy, siyosiy, texnologik va strategik jihatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilindi. Huquqiy ong jamiyat a’zolarining huquq, qonun, adolat, majburiyat va huquqiy me’yorlar haqidagi qarashlari, his-tuyg‘ulari, e’tiqodlari va baholovchi munosabatlarining ifodasidir. U shaxs va jamiyatning huquqiy munosabatlarga yondashuvi, huquqiy bilim va e’tiqodi sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, huquqiy madaniyat bu huquqiy ong, huquqiy tarbiya, qonunchilik, huquqiy institutlar va jamiyatdagi huquqiy munosabatlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u fuqarolarning huquq va erkinliklarga ongli munosabatini, qonuniy xatti-harakatlar ko‘rsatishini va huquqni amalda qo‘llashni ta’minlaydi. Huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotining ajralmas omili sifatida qaraladi.